

TALABALAR MA'NAVY-AXLOQIY SIFATLARINI YUKSALTIRISH

O.R.Ortiqov

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Talabalar ma'naviy-axloqiy sifatlarini yuksaltirishda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlari, mazmun-mohiyati, tarixi, ta'lim jarayoni, tamoyillari, qonuniyatlari, pedagogik shart-sharoitlari, amalga oshirish jarayonlari nazariy jihatdan asoslangan. Ayniqsa, talabalar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda hamkorlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, o'rni, shakl, metod va vositalari, amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, mafkura, ma'naviyat, axloq, ma'naviyat, ajodlar merosi, ta'lim jarayoni,

Ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganish zamirida talabalarni tarbiyalash va kamol topishi masalalari nazarda tutilgan. Ta'limda mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida farmoni, shuningdek, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" PQ – 2909 – sonli qarorlarida mazkur masalga e'tibor qaratilgan.

Yoshlarga ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganish, doimiy tarzda diqqat markazidagi mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash, ta'lim-tarbiya masalalari barcha ilm ahli faoliyatining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarda ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini tan olishimiz zarur.

Mazkur muammolarni hal etishda ilm-ma'rifat tamaddumiga munosib hissa qo'shgan Sharq Uyg'onish davrining buyuk donishmandlarining diniy va dunyoviy bilimlar sohibi, tavhid, kalom, tafsir, hadis ilmining rivojiga xizmat qilgan, jitimoiy va tabiiy fanlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etib, o'zaro uyg'unlikda rivojlanish yo'llarini ko'rsatib bergan, fan va dinning bir-biriga hamohangligini isbotlay olgan, dalillar bilan asoslab bergan yoshlar ta'lim tarbiyasida o'zining benazir o'rniga ega alloma, atoqli faylasuf Muhammad Abu Homid G'azzoliy asarlari muhim ahamiyatga ega.

Ilm-fan – inson kamolotiga poydevor, ma'rifat va ma'naviyat esa barkamollik ustunlaridir. Zero, qadimgi Sharqda ta'lim va tarbiya hech vaqt ayro yoki biri ikkinchisidan ustun baholanmagan. Bu esa dunyo tamadduniga tamal toshlarini qo'ygan Imom Buxori-yu Al-Xorazmiylar, Imom

Nasafiyalar-u Al-Fargʻoniyalar kabi ne-ne dovrugʻi dunyoga doston boʻlgan ulugʻ qomusiy allomalar bebaho merosida ham namoyon boʻladi.

ʻajdodlarning donishmandlik anʻanalariga amal qilib, bugun Oʻzbekiston oʻz taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qoʻydi. Soʻnggi besh yilda mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar oʻrtasida oʻzaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qoʻllab-quvvatlash hamda tinchlik va totuvlikni taʼminlashga qaratilgan izchil va puxta oʻylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan toʻliq qoʻllab-quvvatlanmoqda.

Sharq zaminida kamol topgan minglab olimlar va mutafakkirlar islom dini rivojiga juda katta hissa qoʻshganlari maʼlum-u mashhurdir, – deydi Oʻzbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazarov.

Allomalarning ilm-fanga baxshida etgan umri, erishgan yutuqlari va kashfiyotlari hozir ham insoniyatni hayratga solmoqda. Misol uchun, Xorazm diyorida olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan Mahmud Zamaxshariyini esga olaylik. Oʻzining jismoniy nogironligiga qaramasdan, dunyoning koʻplab mamlakatlariga safarlar qilgan, chuqur bilimi va ilmiy salohiyati bilan hammani lol qoldirgan. Xorazm faxri va Jurulloh nomlari bilan mashhur boʻlgan alloma Zamaxshariy Makkada bir necha yillar yashab ilm uchun beminnat xizmat koʻrsatgan.

Soʻnggi yillarda Sharq allomalari ilmiy merosi chuqur oʻrganilmoqda. Mutafakkirlarning ilmiy asarlari oʻsib kelayotgan avlod uchun bilim va tarbiya manbai boʻlishi bilan birga yangi kashfiyotlarga yetaklaydi.

Imom Gʻazzoliyning kitoblari bugungi kunda taʼlim-tarbiya va islomiy bilimlarni egallashda muhim dastur amal boʻlib xizmat qiladi. Imom Gʻazzoliyning kitoblari soni ikki yuzga yaqin boʻlgan. Kitoblarning koʻpchiligi xorijiy tillarga tarjima qilingan. Masalan «Risalatul Valadiy ya» nemis tilida, «Addurratul foxira fi ahvalil-oxira» kitobi frantsuz tiliga tarjima etilgan.

Mavlono Abu Homid Muhammad al-Gʻazzoliy oʻz davrining mujaddidi boʻlib, musulmon urf-odatlariga koʻra, bu islom taqvimining har bir asrning boshida islomni qayta tiklash, uni begona predmetlardan tozalash va uning pokligini tiklash uchun xizmat qilgan shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Shu boisdan ham Gʻazzoliy oʻz asarlarida islom ilohiyotini falsafiy jihatdan asoslash bilan birgalikda ilm-maʼrifat, taʼlim-tarbiya masalariga alohida eʼtibor bergan. Gʻazzoliy aql bilan dunyoni anglashni, islomiy taʼlim-tarbiyani esa ruhiy, jismoniy harakatlar — toat-ibodatlar orqali anglash lozim, deb taʼkidlaydi.

Abu Homid Muhammad al-Gʻazzoliy gʻoyalari islom tafakkuriga va oʻrta asr Yevropa falsafasiga taʼsir koʻrsatdi. Gʻazzoliyning bu xizmatlari zamondoshlari tomonidan «Hujjat ul-islom» («Islom dalili») deb ulugʻlanishga sabab boʻlgan.

Gʻazzoliy asarlarini tarbiyaviy jihatdan pedagogikaning tarixi qismida oʻrganishdan tashqari, ijtimoiy pedagogikada muhim manba sifatida foydalanib, fanining muhim tarkibiy qismiga aylantirish, hayotga yangicha tarbiyaviy nuqtai nazardan yondashishga, oʻsib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi taʼlim-tarbiya mazmuni tashkil etishi lozim. Sharqning buyuk mutafakkiri Muhammad al-Gʻazzoliyning ilmiy merosi xalq pedagogikasida ham tarbiya borasidagi boy madaniy meros hisoblanib, maʼnaviy-axloqiy qarashlari falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, pedagogika kabi fanlarning rivojiga xizmat qilgan. Xulosa qilib aytganda, Muhammad al-Gʻazzoliyning maʼnaviy-axloqiy qarashlari yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazishda, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga mazmunan yoʻnaltirilgan pur ilm-ziyoga ega asar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: O‘zbekiston. 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni -T.: “O‘zbekiston”, 2020 yil 23 sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-sonli Qonuni, 14.09.2016 yil
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarori, 2017. 28. 07
5. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so‘zi» 2017 yil 1 iyul
6. Abu Homid G‘azzoliy “Ihyo ulumid-Din” (Din ilmlarini jonlantirish) T.: “Movarounnahr” nashriyoti, T.: 2007-yil. 144-bet.
7. Abu Homid G‘azzoliy “Ihyo ulumid-din” (Din ilmlarini jonlantirish) Ilm kitobi Birinchi kitob. Toshkent. “Movarounnahr”. 2005 yil. 144-b
8. Abu Homid G‘azzoliy “Ihyo ulumid-din” Tafakkur kitobi. T.: “Islom universiteti” nashriyoti, T.: 2007-yil. 31-bet.
9. Quronov M. Qodrova A. Akramova Sh. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish: - Toshkent: Manaviyat nashriyoti, 2018.112b
10. Murodova M. M. Bo‘lajak boshlang‘ish sinf o‘qituvchilari faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetentlik //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 1. – S. 90-97.
11. O.R.Ortiqov Ma’naviy-ma’rifiy ishlar talabalar mafkuraviy immuniteti rivojlantirish kafolati. Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали 3 (Выпуск №3), 29-36.
12. O R Ortikov, MM Murodova. Xalq qo‘shilari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. Экономика и социум, 161-164
13. O R Ortikov, D Raximova Talabalar mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda mahallaning roli va ahamiyati. Экономика и социум, 1310-1313
14. Ortiqov O. R. Talabalar ma’naviy axloqiy fazilatlarini shakllantirishda “qobusnoma” asaridan foydalanish //Conferencea. – 2023. – S. 1-5.
15. Ortiqov O. R. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – S. 42-47.
16. Ortiqov O. R. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta’lim mussasalari misolida) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – S. 1130-1135.
17. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – S. 160-165.